

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 24 248,4 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar - 23 997,8 mlrd. so'mni (106,6 %), o'rmon xo'jaligi - 171,6 mlrd. so'mni (102,0 %), baliqchilik xo'jaligi - 79,0 mlrd. so'mni (113,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 8,3 % ni tashkil etdi.

**24 248,4**

**Surxondaryo viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**23 997,8**

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02

**171,6**


O'rmon xo'jaligi

03


**79,0**

Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2023- yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 99,0 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 0,7 % i - o'rmon xo'jaligi, 0,3 % i - baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (3 987 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on tumanlarida (2 422 mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (74 mlrd. so'm) va Bandixon tumanlari (808 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (106,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (111,0 %), Bandixon (110,2 %), Muzrabot (109,4 %), Jarqo'rg'on (108,8 %), Sherobod (108,6%), Termiz (107,5 %), Angor (107,0 %) va Denov (106,7 %) tumanlarida kuzatildi. Uzun (106,2 %), Qumqo'rg'on (106,0 %), Sho'rchi (104,1 %), Sariosiyo (102,7 %), Boysun tumanlarida (101,1 %) va Termiz shahrida (101,1 %) hamda Oltinsoy tumanida esa (100,7 %) aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 23 835,9 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 12 897,1 mlrd. so'mni (110,0 %), chorvachilik mahsulotlari – 10 938,8 mlrd. so'mni (102,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

54,1 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




45,9 %
Chorvachilik
mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,9 % i - dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,6 % i - fermer xo'jaliklariga, 7,5 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Denov tumanida (32,5 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (91,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida (24,3 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Qiziriq tumanida (1,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Muzrabot tumanida (59,2 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun tumanida (0,3 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 12 897,1 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 54,1 % ni tashkil qildi.

Don jami



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 694,2 ming t. don (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
don yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming t.




O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 301,6 ming t. kartoshka (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmog'da.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 884,6 ming t. sabzavot (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 85,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmogda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
sabzavot yetishtirish
hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 219,2 ming t. poliz (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
poliz yetishtirish
hajmi, tonna**




Mevalar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 88,0 ming t. meva (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
meva yetishtirish
hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 67,2 ming t. uzum (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 23,9 % ga kam) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10 938,8 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 45,9 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 148,8 ming t. go'sht (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,8 % ga ko'p), 618,8 ming t. sut (3,4 % ga ko'p), 425,3 mln. dona tuxum (8,8 % ga ko'p), 1 942,0 t. jun (1,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi va 3 326,0 t. baliq (12,7 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 148,8 ming t. go'sht (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 618,8 ming t. sut (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




Surxondaryo viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 425,3 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 8,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum hajmi,
ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 326,0 t. (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 12,7 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 59,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yining 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 20,0 % i fermer xo'jaliklariga, 77,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 29,1 % i fermer xo'jaliklariga, 67,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 11,0 % i fermer xo'jaliklariga, 54,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 34,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 007,6 ming boshga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 34,2 ming boshga (3,5 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 361,9 ming boshga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 5,8 ming boshga (1,6 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
sigirlarning umumiy bosh soni,
ming bosh**




2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 551,1 ming boshga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 57,9 ming boshga (2,3 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 77,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 15 737 taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 592 taga (3,9 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 67,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
otlarning umumiy bosh soni,
bosh**




2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 133,1 mingtaga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 141,3 mingtaga (2,8 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 54,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 76-225-65-78